

O'RTA OSIYO DAVLATLARIDA MUSIQIY CHOLG'ULARNING
TAKOMILASHUVI

Shahrisabz davlat peadagogika
institute
San'atshunoslik kafedrası
o'qituvchisi
Esonova Marjona Sirojiddin qizi
e-mail:
marjonaesonova56@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda o'zbek milliy musiqasining amaliy va nazariy taraqiyyot, musiqa madanyatining rivojlanishi, shuningdek, milliy musiqa cholg'uchilari va ijrochilari ahamiyati haqida so'z brogan..

Kalit so'zlar: milliy musiqa cholg'ular, musiqa tarixi, Abu Nasr Farobiy "Kitobi-l-musiqiy al kabir" kitobida, Abu Ali Ibn Sino

IMPROVEMENT OF MUSICAL INSTRUMENTS IN CENTRAL ASIA

Abstract: This article discusses the practical and theoretical development of Uzbek national music, the development of musical culture, as well as the importance of national musical instruments and performers..

Keywords: national musical instruments, history of music, Abu Nasr Farobi in his book "Kitabi-l-musiqi al-kabir", Abu Ali Ibn Sina

РАЗВИТИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В СТРАНАХ
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В данной статье мы говорим о практическом и теоретическом развитии узбекской национальной музыки, развитии музыкальной культуры, а также о значении национальных музыкантов и исполнителей.

Ключевые слова: национальные музыкальные инструменты, история музыки, Абу Наср Фараби в книге «Китаби-ль-мусики аль-кабир», Абу Али ибн Сина

Musiqqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotida, musiqqa asarlarini paydo bo'lishida musiqqa madaniyatining rivojlanishida, asrlar osha takomillashib, Musiqqa cholg'ulari, cholg'u ijrochiligi har bir davrda musiqqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, har bir millatning milliy musiqqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi. Chunki milliy musiqqa cholg'ularida asosan ko'proq har bir xalqning milliy musiqqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg'ulari deb ataladi. Har bir millatning musiqqa merosi, bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi.

“Qavliy” bu tabiiy inson tovushidagi sadolar va “fe'liy” esa sun'iy deb sanalib, ya'ni musiqqa cholg'ularidan biri chiqadigan musiqiy sadolar tushuniladi¹. Ko'plari qadimiy musiqqa cholg'ulari hisoblansa, ba'zilar esa keyingi yillarda ixtiro qilingan musiqqa cholg'ularidir. Hozirgi kunda dunyodagi Sharq va Ovroppa xalqlarida 300 dan ortiq musiqqa cholg'ulari milliy musiqqa ijrochiligida qo'llanilmoqda. O'zbekiston hududida mavjud milliy musiqqa cholg'ularining tarixi, zamonaviy musiqqa cholg'ulari va ularning hozirgi zamon musiqqa madaniyati rivojidagi o'rni haqida fikr yuritmoqchimiz.

Cholg'u ijrochiligi yildan-yilga boyib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg'u ijrochiligiga alohida e'tibor berilib, Boshlang'ich, O'rta va Oliy musiqqa dargohlarida “Cholg'u ijrochiligi” bo'limlari faoliyat ko'rsatib, barcha milliy musiqqa cholg'ularining ijrolari o'rganilmoqda. Keyingi 24 yil ichida musiqqa cholg'ularining milliy uslubdagi ijrochilik bo'limlari tashkil etilib, yetuk ijrochilar yetishib chiqdi. Shuning uchun keyingi yillardagi cholg'u ijrochiligiga xos musiqiy ma'lumotlarga keng urg'u berildi. O'sha davrlarda juda ko'p musiqqa cholg'ulari musiqqa ijrochiligida keng qo'llanilgan. Bu borada musiqashunos Darvesh Ali Chang'iy o'zining musiqiy risolasida chang, ud, nay, doira musiqqa cholg'usining

¹ Исҳоқ Ражабов. Мақомлар масаласига доир. Тошкент 1963 й

o'sha davrdagi mavqeini va musiqa ijrochiligidagi o'rnini yuqori baholab "Ud" barcha musiqa cholg'ularining podshosidir va "Rud" musiqa cholg'usi ham kamon vositasida ijro etilganligi haqida ma'lumot beradi.

Ma'lumki IX-X asrlarda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Ro'dakiy o'z zamonasida "Rud" va "Chang" musiqa cholg'ularining mohir ijrochisi bo'lgan. O'sha davrda yashagan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari yaratilib, bu asarda bir qancha mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari, umuman juda ko'p turli xil qo'shiqlar o'z aksini topgan. X asrning buyuk allomasi musiqashunos olim Abu Nasr Farobiy (873-950) musiqa ilmiga katta e'tibor berib musiqa cholg'ularining ijrolari, musiqa nazariyasi, «Sharq nota tizimi»ni yaratish va ularni o'sha davrdagi musiqa ijrochiligiga qo'llanish masalalari, matematika fanini mukam al o'rganish bilan birga matematika fanining bir turi hisoblangan musiqa ilmini o'rganish va uni targ'ib etishga o'zining buyuk hissasini qo'shgan. Uning "Kitobi-al-musiqiy al kabir" (Musiqa ilmiga oid katta kitob) asarida turlicha musiqa usullari (zarblari) musiqa cholg'ularidan ud, tanbur, nay, chang va turlicha musiqiy ovozlari haqida ma'lumot berilgan² X asr ashula san'atiga doir ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham o'z aksini topgan. O'zbek adabiyotshunos olimi N.Mallaev qadimiy qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib X-XII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa cholg'ularidan tanbur, rubob, kus (qo'sh) nog'ora, qubus, tabl, zurna, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unun, qonun kabi hamda zarbli va puflama musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilganligi haqida shuning bilan birga shu davrda «Rost», Xusravoniy "Boda", "Ushshoq", "Zurafkand", "Bo'shlik", "Sipaxon", "Navo", "Basta", "Tarona" va juda ko'p musiqa asarlar ijro etilganligi haqida ma'lumot bergan³. Tibbiyot dunyosining allomasi Abu Ali Ibn Sino (908-1037) ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Ba'zi musiqiy risolalarda zikr etilishicha Abu Ali Ibn Sino go'yo Sulton Maxmud G'aznaviy, Nosir Xisravlar bilan birgalikda "G'ijjak" musiqa cholg'usini ixtiro qilganligi haqida ma'lumot berilgan⁴.

² M.M.Xayrullaev. Farobiy. Toshkent 1963. 176 s

³ M.M.Mallaev. O'zbek adabiëti tarixi. Toshkent 1965. 94 s

⁴ А.Ражабов. «Нағмаи Нигон. Душанбе. Адиб 1998. 194 с»

Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi Xorazm, Afrosiyob, Xolchayon, Termiz, Varaxsha, Balaliktepa, Dalivarzintepa hududlarida olib borilayotgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan juda ko'p musiqa cholg'ularining qolodirlari. Xonanda va sozandalar aks ettirilgan nusxalari topilmoqda. Faqat Amir Temur zamonida Turkiston Mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilindi. Movaraunnahr qo'lga olinib, Samarqand uning poytaxti deb e'lon qilindi. Undan tashqari Oltin O'rdaga yurib Shimoliy Kavkazni, Astraxan, Qora dengiz bo'ylari 1399 yil Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya 1402 yil, keyin Iroq, Suriya va boshqa juda ko'p mamlakatlarni egalladi. Shu davrda Movaraunnahrda madaniyat, adabiyot, san'at rivojlandi. Ayniqsa Samarqandda ilmu-hunar sohiblari, olimlar, me'morlar, naqqoshlar, rassomlar, aktyorlar, musiqashunoslar, xonanda va sozandalar to'plandilar. Musiqa ilmining namoyondalari Abdulqodir Marog'iy, sozanda va bastakorlardan Sayfiddin Qutbi Noyi, Said Yusuf qubus, Darvesh Bek va boshqalar yashab ijod etdilar⁵.

Ulug'bek faoliyatidan keyin bu shaharda o'z davrida adabiyot, san'at, madaniyat, musiqa sohalarini rivojiga katta e'tibor bergan o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy (1441-1501) yashab ijod etar edi. Ayniqsa, Alisher Navoiy musiqa dunyosining namoyondalariga o'zi homiylik qilgan. O'sha davrda ko'pgina uydan nog'ora, nay, g'ijjak, ud, tanbur va boshqa ko'pgina musiqa cholg'ularning sadolari eshitilib turar ekan. Ayniqsa musiqa madaniyatining rivojida yangi kuylar, qo'shiqlar, musiqiy risolalar yozildi va bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Shu davrda madaniyat va san'at sohasida ancha tushkunlik ro'y berib, ko'pgina ilm-fan sohiblari o'z vatanlarini tashlab xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo'ldi. Jumladan, Bobur Mirzo Hindistonga borib "Buyuk Mo'g'ul Davlati" nomi bilan qurgan davlati natijasida Movaraunnahr va Xuroson madaniyati ham ularda rivojlanib, bir qancha san'atkor, xonanda va sozandalar ham Hindistonga ketib qolganligi haqida Dervesh Ali ma'lumot beradi. XV asr musiqa ilmi namoyondalaridan biri Najmiddin Kavkabi bo'lib Dervesh Ali Changiyning hikoya qilishicha Kavkabi Hirotda tahsil ko'rgan bo'lib, uni Ubaydulloxon tomonidan

⁵ М.Рахмонов. Ўзбек театри. Тошкент 1975 й. 217 с

Hirotdan Buxoroga olib kelinganligi va Kavkabiy bu yerda o'zining musiqa maktabini yaratib, Xo'ja Muhammad, Rizo Samarqandiy, Xo'ja Xasan Nisoriy, Xasan Kavkabiy, Bodi Jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlab, o'zining musiqa sohasidagi buyuk musiqa risolasi "Risolaiy musiqiy" yaniy "Risola dar bayoni duvozdah maqom" asarini yaratdi. XVI asrga kelib madaniyat, san'at jumladan, musiqa san'ati ham tushkunlikka tushdi. Urushlar kuchayib ketdi. Natijada 1716 yilda Farg'onada O'zbeklar urug'idan hisoblangan Shoxruxbiy Qo'qonni Buxorodan ajratib, Qo'qon xonligini barpo etdi. Keyinchalik Turkiston XVII asrlardan boshlab Buxoro, Qo'qon, Xorazm xonligiga bo'linib ketdi.

Sharq va o'rta osiyo xalqlari cholg'ulari azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. Sharq va O'rta Osiyo xalqlarining musiqa cholg'usozlari haqida o'quvchi yoshlarning madaniy va ma'naviy saviyasini shakllantirish yo'lida musiqa cholg'ulari ham beqiyos o'rni borligi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda milliy cholg'ularimizning ijrochilikdagi o'rni va mohir sozandachilik san'ati namoyondalari to'g'risida olib borilgan tadqiqotlar hatijasida to'plangan malumotlardan umumta'lim maktablari musiqa madaniyati fani o'qituvchilari, musiqa va san'at maktablari hamdasan'at va madaniyat kollejlari musiqa o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch" T.Ma'naviyat, 2008y,
2. Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963 y
3. M.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 1965
4. M.Raxmonov. O'zbek teatri. Toshkent 1975 y.
5. Boburnoma. Toshkent 1958.
6. Tilab Maxmudov. Avesto haqida. Toshkent 2000.
7. 8.N. Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent 1995.
8. 9.N.Mironov. Muzika uzbekov. Samarkand. 1929
9. 10.F.Karomatov va boshqalar «O'zbekiston xalq sozandalari» 1959.

10. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Musiqqa San'atning Pedagogik Shakllanish Jarayonlari." *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends* 2.5 (2024): 58-62.
11. Isomovich, T. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 7(5), 93-99.
12. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "XX ASRDA O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA TUB BURILISH, YOHUD IJROCHILIK USLUBINI YANGI SHAKLI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 20.5 (2024): 27-31.
13. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 7.5 (2024): 93-99.
14. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Historical Pedagogical Content And Characteristics Of Dutor Instrument Performance." *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments* 2.5 (2024): 310-316.